O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

Inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish

Nomli metodik tavsiya



Toshkent 2022

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 2022-yil 29-iyundagi 2-sonli qarori bilan ma’qullangan**.**

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinovaning** umumiy tahriri ostida

Tuzuvchilar:

S.Mo‘minov	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodist
Sh.Axmedova	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti
G.Alimova	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri p.f.d., (DSc), proff
M.Kasimova	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti

Ushbu metodik tavsiya alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarning ta’lim va tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta’limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo‘lib, buning natijasida nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish va ularga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ilmiy o‘rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo‘lib bormoqda. Shunga ko‘ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zarur.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo‘yilganligi ham ta’lim sohasiga bo‘lgan ulkan e’tibordir. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta’limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir.

20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

2021/2022 o‘quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.



Inklyuziv ta’lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta’lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;

- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);

- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma’lum darajadagi va ma’lum bir yo‘nalishdagi ta’lim olish, shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish orqali eng qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozimdir.

Shunday qilib, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta’lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Kadrlarni tayyorlash sohasida:



- umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimi mazmunini yetkazib berish va sifat jihatidan yangilash talab etayotganligi;

- pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta’lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda qator muammolar yuzaga keltirib chiqarayotganligi;

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmaganligi;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo‘lajak pedagoglarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi;

- umumta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta’lim haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasligi natijasida inklyuziv ta’limni joriy etishning samarasizligiga olib kelayotganligi;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limi bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta’lim bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmaganligi;

O‘quv jarayonini tashkil etish sohasida:

- umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish metodikasi ishlab chiqilmaganligi;



alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmaganligi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari zarur maxsus o‘quv adabiyotlari va metodik-qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi shu vaqtgacha inklyuziv ta’limni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan edi.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa - ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.


Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

- inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish (maqsadli malaka oshirish kurslari):

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish;

- inklyuziv ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta’lim berishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish (olg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish);

- o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish (metodik qo‘llanma va tavsiyalar);



- inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta’limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o‘quvchilar soni kam bo‘lgan umumta’lim maktablaridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishga e’tibor qaratish;

- inklyuziv ta’lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;

- xalq ta’limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo‘yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta’limini amalga oshirish mexanizmlarini ko‘zda tutuvchi o‘quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo‘lga qo‘ygan holda, inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining “Maxsus pedagogika” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul parametrlarini oshirish;

- inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:



alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘quvchilar uchun sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;



- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun sport to‘garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o‘rtasida inklyuziv ta’lim tizimi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik (bulling) ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash zarur;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Inklyuziv ta’limga jalb qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

- “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garaklarida inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning madaniyat, san’at, sport va boshqa yo‘nalishlarda erishgan yutuqlari to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.



O‘quvchining sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, sog‘lom va sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolari bo‘lgan o‘quvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi imkoniyatlarini oshirishga e’tibordan chetda qolmasligi kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta’lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mazmuni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta’lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta’minlashga, uning o‘zini o‘zi belgilashiga, o‘zini o‘zi anglashiga, o‘zini o‘zi tasdiqlashiga hissa qo‘shishga qaratilgan barcha ta’lim subyektlarining faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta’lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi bilan bog‘liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir.

Inklyuziv ta’limning barcha ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni samarali tashkil etish g‘oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuziv ta’limni umumta’lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo‘llab-quvvatlashning xilma-xilligini hisobga olish;

- o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo‘llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;

- yuqorida qayd etilgan ta’lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo‘l va vositalarni ishlab chiqish;

- ta’lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi.



Shunday qilib, ta’lim jarayoni qo‘llab-quvvatlash obyekti bo‘lib, bolaning tashqi dunyo, atrofdagi odamlar (kattalar va tengdoshlar), o‘zaro munosabatlar tizimi va ularni rivojlantirish, tuzatish, tiklash hamda qo‘llab-quvvatlash predmeti hisoblanadi.

Yuqoridagilar bizga inklyuziv ta’lim sharoitida ta’lim jarayoni ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning bir qator yetakchi tamoyillarini aniqlash imkonini beradi:



- alohida ehtiyojli bolani rivojlantirishning har qanday muammosini hal qilishda kompleks, fanlararo yondashuv;

- ta’lim va tarbiya ishlarida dastur va yondashuvlarni o‘zgartirish;

- oddiy bolalarning ham, alohida ehtiyojli bolalarning ham qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual va jamoaviy faoliyatning turli xil turlarini tashkil qilish;

- uyg‘unlashgan rejimda ishlaydigan o‘qituvchilarning professionalligi va malakasi;

- o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchilar, ota-onalar, o‘quvchilarning bir-birini to‘ldiruvchi faoliyati;

- alohida ehtiyojli bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- ta’lim jarayonida alohida ehtiyojli bolaning rivojlanishini doimiy qo‘llab-quvvatlash kafolati;

- hududiy xususiyatlarni, hududdagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda.

Umuman olganda, alohida ehtiyojli bolalarni ta’limga jalb qilishni qo‘llab-quvvatlash jarayonining muvaffaqiyati bir qator shartlarga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni:

- bolalar rivojlanishidagi og‘ishlarni erta ijtimoiy-psixologik va pedagogik tuzatish;

- umumiy turdagi maktabgacha va maktab ta’lim muassasalarida zarur dasturiy ta’minot, uslubiy va kadrlar bilan ta’minlanganligi;

- tabaqalashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish, o‘qitish va ta’lim dasturlarining yuqori o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligi;

- bolalar jamoasida, shuningdek, o‘qituvchilar va bolalar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida qulay shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu shart-sharoitlar majmuasi alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta’limini qo‘llab-quvvatlash, ularni reabilitatsiya qilish va shaxsiy salohiyatini integratsiyalashning samarali tizimini yaratishga yordam beradi.



Nogironligi bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta’limini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ta’lim dasturlarini psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- adekvat o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;
- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish.



Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim tizimiga qarab, psixologik-pedagogik yordamning mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Maktabgacha ta’lim bosqichida rivojlanish buzilishlarini erta tashxislash va tuzatish, sog‘lig‘ida muammolar

bo‘lgan bolalarning integratsiya sharoitida maktabda o‘qishga tayyorligini psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur.

Boshlang‘ich sinf ta’limi bosqichida maktabda o‘qishga tayyorgarlikni aniqlash, maktabga psixologik moslashuvni ta’minlash, o‘quvchining o‘quv faoliyatiga qiziqishini rag‘batlantirish, kognitiv va o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish, istakni shakllantirishga yordam berish muhimdir. Undan tashqari o‘rganish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham juda muhimdir.



Boshlang‘ich sinf darajasida - alohida ehtiyojli o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash, yangi o‘quv sharoitlariga moslashish, shaxsiy muammolar va ijtimoiylashuv muammolarini hal qilishda yordam berish, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, nevrozning oldini olish, konstruktiv munosabatlarni o‘rnatishga yordam berishdan iborat. Ota-onalar va tengdoshlar bilan, deviant xatti-harakatlarning oldini olish.

Yuqori sinfda kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, ekzistensial muammolarni hal qilishda yordam berish (o‘zini o‘zi bilish, hayotning ma’nosini izlash, shaxsiy o‘ziga xoslikka erishish), vaqt nuqtai nazarini rivojlantirish, rivojlanish psixo-ijtimoiy kompetensiya va deviant xatti-harakatlarning oldini olish.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish jarayonida integratsiya nuqtai nazaridan ta’lim-tarbiya va rivojlanish muammolarini hal etishda alohida ta’lim ehtiyojli bolaga zarur psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatuvchi sinf rahbari, maxsus o‘qituvchi, psixolog, tyutor yetakchi rol o‘ynaydi. Ular faoliyatining asosiy maqsadi alohida ta’lim ehtiyojli bolaning noto‘g‘ri moslashishini oldini olish , ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan muammoli o‘zaro munosabatlarda tanqidiy vaziyatlarning paydo bo‘lishi.

Shunday qilib, turli darajadagi qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olgan rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning o‘tish bosqichlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlash

Inklyuziv ta’lim - bu umumta’lim (ommaviy) maktablarda sog‘lom o‘quvchilar bilan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni birga uyg‘unlashgan tarzda o‘qitish jarayonidir. Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlovchi, hamda alohida ta’limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta’limdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki (2021-2022 o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumta’lim maktablaridagi) inklyuziv sinflardagi, ba’zi sog‘lom bolalar ota-onalari o‘z farzandlarini alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchi bilan birga ta’lim olishini istamay boshqa sinf yoki maktabga olib ketdilar. Siz tushunishingiz kerakki, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi, balki bolalar orasida do‘stona



muhitni yaratadi, kamsitmaslik, bag‘rikenglik va bir-biriga yordam berish xissini uyg‘otadi. Inklyuziv yondashuvlar bu bolalarni o‘rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo‘llab-quvvatlaydi, ularga yaxshi hayot uchun imkoniyatlar beradi.

Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang‘ich imkoniyatlariga ega bo‘lgan barcha toifadagi bolalarning sifatli ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Asosiy maqsadlar:

- inklyuziv ta’lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil etish;

- alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni moslashtirish, tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini ta’minlash;

- yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini tarbiyalash.

Inklyuziv ta’lim muhitiga qo‘shilishning dastlabki bosqichida o‘qituvchilar bilan treninglar o‘tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o‘z qo‘rquvlari, umidlari va noto‘g‘ri tushunchalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o‘qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar haqida tushunarli ma’lumotlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xatti-harakatlari tavsifi haqida tushuntirish. Psixologik nuqtai nazardan, maktab o‘qituvchilari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan xotirjam va etarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu etarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi. Ijtimoiy-psixologik yordamda psixologik-pedagogik testlar olinadi.



Ommaviy maktabda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bu ijtimoiy moslashuv - turli xil kommunikativ o‘yinlar bilan darsdan tashqari dars davomida bolalarni ta’limga jalb qilishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun tuzatish va rivojlantiruvchi sinflarda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘zingiz va boshqa bolalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash.

2. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga o‘xshamaydigan bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni aniqlash.

3. “Tolerantlik” tushunchasi bilan tanishish.

4. Jamiyatimiz ishtirokchilari orasida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisabatan bag‘rikenglik va murosasizlik ko‘rinishlarini muhokama qilish.

Ta’lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta’lim maktab o‘quvchilarining ota-onalari bilan ishlash. Bugungi o‘quvchilar bir necha yildan so‘ng jamiyatimizni tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan nogironligi bo‘lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o‘rganishlari muhim.



O‘quvchilarlar so‘rovi natijalariga ko‘ra:

1. Jismoniy nuqsonlari, nogironligi bor odamlarga qanday munosabatdasiz?

Javob: yaxshi -85%, javob berish qiyin - 15%;

2. Sinfda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning borligi sizni bezovta qilmaydimi?

Javob: yo‘q - 65%, ba’zan - 25%, ha - 10%);

Inklyuzivlik sohasidagi ijtimoiy-psixologik ish faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- inklyuziv ta’limning yangi dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish;
- ota-onalar klubini tashkil etish;
- ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini jalb qilish.

Inklyuziv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining vazifalari va ularni psixologik-pedagogik qo‘llab quvvatlash

1. Maktab - Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab oladi va alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi.



Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolani o‘ziga o‘xshagan nogironligi bo‘lgan bolalar emas sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta’lim haqida tushunchaga ega bo‘lgan ota-onalarni endilikda inklyuziv ta’limda o‘qiydigan farzandi bo‘lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish;

- ota-onalar uchun uyushma yoki o‘z-o‘ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari);

- ta’lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish;

- maktab komissiyalari yoki yig‘ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta’minlash;

- ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg‘ulotlarni tashkil etishda yordam berish;

- ota-onalarning o‘z huquqlarini himoya qilishlarini ta’minlash, qonunchilik va xizmatlar ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

2. Maktab direktori: Direktor qo‘llab-quvvatlash guruhining a’zosi. U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta’minlaydi. Direktor

o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi hodimlarni ta’minlaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi. Direktor ko‘pincha jamoaviy qarorlarning bajarilishini ta’minlaydigan shaxsdir.



• o‘quvchini maktabga qabul qilish;

• jamoaviy qarorlarni qonuniylashtirish;

• o‘quvchini maktab faoliyatiga qo‘shish;

• ota-onalarning kutib olish;

• ilg‘or tajribalarni qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek direktorning vazifasiga moslashtirilgan adaptiv dasturni baholash vazifasini bajaradi. Maktab direktori o‘quvchining individual moslashtirilgan adaptiv dasturini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish uchun asosiy mas’uliyatni o‘qituvchiga, odatda maxsus ta’lim o‘qituvchisiga yuklaydi. Xodimlar ota-onalar va kerak bo‘lganda o‘quvchilar va boshqa mutaxassislar yordamida dastur rejalarini ishlab chiqadilar.

3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi: Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur.

- ta’lim-tarbiya jarayonini davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi;

- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta’lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.

- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari);

- ta’lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o‘rnini ko‘rsatib berish;

- ta’limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo);

- inklyuziv ta’lim bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o‘rganib borish, va ularning ish faoliyatida qo‘llash;

- innovatsion bilim, malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollanib yurishi (har qanday vaziyatda ham qiziquvchilarning savollariga javob beraoladigan bo‘lishi);

- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi;



- sinf jamoasi orasida do‘stona munosabat muhitini o‘rnatish va nazorat qilib birish.

- doimiy ravishda o‘z ustida ishlash va tajriba almashib borish;

- o‘quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Inklyuziv boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har doim alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo‘lishadi. Ushbu muloqot uchun ba’zi tavsiyalar:

• ota-onalar bilan muloqot o‘rnatish jarayonida sof adabiy tilda (samimiy) ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish;

• ota-onalarni ta’lim jarayonida qanday qilib ishtirok etishlari mumkinligini tushuntirish ya’ni maktabga har qanday vaqti kelib ta’lim jarayoni kuzatib borishi, farzandini dars jarayonidagi ishtirokini kuzatishi mumkin;



• ota-onalarga bolaning milliy ta’lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o‘rgatish (asosan yakka mashg‘ulotlarda);

• ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo‘llab-quvvatlash guruhlariga kirish huquqini berish (sinf va maktab yig‘ilishida qatnashishini ta’minlash va ularni jalb qilish);

• ota-onalar bilan aloqa bog‘lash ya’ni: telefon yoki yozma aloqa bog‘lash, ularni qo‘llab-quvvatlash guruhi yig‘ilishlari to‘g‘risida xabardor qilish;

• qo‘llab-quvvatlash guruhi yig‘ilishlarida muhokama qilinadigan va ishtirok etadigan mavzular bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish;

• yig‘ilish oldidan ota-onalarga tanishish uchun uyga maqsad va vazifalarning taxminiy loyihasini yuborish;

• maktab vakili ota-onalarni kutib olishi, ularni konferensiya zaliga olib borishi va mavzu yuzasidan tanishtirishi kerak;

• ota-onalarning jamoa yig‘ilishida qulay bo‘lishini ta’minlash (zerikarli va ota-onalar tushunmaydigan bo‘lmasligi kerak);

4. Maxsus o‘qituvchi: Maxsus o‘qituvchi butun ta’lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o‘quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi.

• o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta’minlaydi;

• o‘qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

• milliy dastur asosidagi ta’limni samarali o‘zlashtirilishida muhim o‘rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

• o‘quvchilarning bilimini nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

• o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

• maktabda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

• ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.



Tyutor (yordamchi pedagog xodim) - Inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutorlar (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tyutor:

- ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko‘maklashadi;

- o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq darajada o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi, bolaning o‘quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar beradi;

- ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda ta’lim oluvchilarning ta’limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o‘rnatadi.

Tyutorlar dastlab o‘zi biriktirilgan sinfni kuzatadi. Har bir bola haqida barcha ma’lumotlarni to‘liq o‘rganadi. Dars davomida o‘qituvchiga yordamlashadi, lekin o‘zining faoliyatini iloji boricha o‘quvchilarga sezdirmasligi kerak bo‘ladi. Sinf o‘qituvchisi yo‘q bo‘lgan hollarda, tyutor o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi sifatida ham faoliyat olib borishi mumkin. Shunda tyutorga sinfdagi o‘quvchilar uchun javobgarlik yuklatiladi. O‘quvchi haqida asosiy ma’lumotlar ham yig‘ma jildlar tyutorda ham bo‘lishi talab qilinadi.

Maktab psixologi - Maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o‘quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishadi;

- ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi;

- inklyuziv sinf o‘quvchilari bilan yalpi psixologik o‘yinlar va mashg‘ulotlar olib boradi;

- sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do‘stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o‘z farzandi bilan olib borilishi zarur bo‘lgan ishlar yuzasidan maslahatlar odib boradi;

- o‘quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganish va ularni tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Maktabdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning sog‘lomlashtirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o‘quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlaridan kelib chiqib ular bilan yakka va guruhli tarzda mashg‘ulotlar olib borish;

- o‘quvchilar bilan birgalikda sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish;

- ota-onalarga o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish sohasida maslahatlar berish;

- tibbiyot xodimlari bilan birgalikda har bir o‘quvchining jismoniy yuklamasini tartibga solish.

Tibbiyot xodimi - Maktabdagi inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlari bo'lgan o‘quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot xodimi o‘quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Tibbiyot xodimi:

- o‘quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo‘lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi;

- korreksion-pedagogik ta’lim jarayonida bolalar sog‘ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me’yorini belgilaydi;

- o‘quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan xamkorlikda ularni sog‘lomlashtirish ishlarini olib boradi.



Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi **-** Barcha oila a’zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish, shuningdek bolani va oilani himoya qilish, turli omillarni bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’siridan himoya qilish.

Oilani ta’lim jarayoniga jalb qilishning afzalliklari:

• ta’lim jarayoniga qamrab olingan kunga qadar o‘quvchi hayotining tarixini yetkazib bera oladi;

• o‘quvchi haqidagi muhim tibbiy ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin;

• vaqt o‘tishi bilan dasturlashning uzluksizligini ta’minlashga yordam berishi mumkin;

• bolaning uyga va jamiyatga bo‘lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko‘nikmalarga oid muhim ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

• maqsad va samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin;

• uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Ota-onalar hech qachon farzandining o‘zlashtirishi tushib ketishidan cho‘chimasligi kerak. Odatiy shaklda maxsus maktab-internatlarda ta’lim olayotgan bolalarning ko‘rsatkichlaridan inklyuziv ta’lim sharoitda o‘qiyotgan bolalarning natijalari yuqoriroq chiqqanligi isbotlandi.



Xulosa

Agar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi kichik maktab yoshida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlansa:

• maktabdan kattalar hayotiga o‘tish (ijtimoiy hayotga kirish) oson bo‘ladi;

• ishga joylashish imkoniyatlarida (nogironlik darajasiga qarab to‘g‘ri kasb-hunarga yo‘naltirishda qiyinchiliklar kuzatilmaydi;

• o‘quvching shaxsiy qiziqishlari eshitiladi va inobatga olinadi;

• maktabni tugatgandan keyingi hayotida turar joy variantlarida muammolar kuzatilmaydi;

• alohida ehtiyojli boilalarni harakatlanishidagi kunlik ehtiyojlarini qondirish uchun transport vositalarida harakatlanish tartibini shakllanadi;

• tibbiy yordamdan qanday foydalanish mumkinligi haqidagi tushunchalar hosil bo‘ladi;

• keyingi ta’lim (oliy ta’lim, kollej) haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

• jamoaviy dam olish va bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish imkoniyatlaridan foydalanadi;

• oilaviy va do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni biladi;

• mustaqil hayot uchun ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

4. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel.

5. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.

Mundarija

№	Mavzu nomi……	Bet
1.	Kirish……..	**3**
2.	Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish……..	**8**
3	Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlash……	**18**
4.	Inklyuziv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining vazifalari va ularni psixologik-pedagogik qo‘llab quvvatlash…….	**22**
5.	Xulosa…….	**31**
6.	Foydalanilgan adabiyotlar……..	**32**